O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY NAFAQALAR TIZIMI: TASNIFI, TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI VA OILALARGA TA’SIRI

Mamatqulova Fotimaxon Maxammadjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: fotimamatqulova1995@gmai.com

Annotatsiya:
Ushbu maqolada O‘zbekistonda amal qiluvchi ijtimoiy nafaqalar tizimi, uning 17 nafaqa turi bo‘yicha tasniflash, nafaqa tayinlash mexanizmlari va aholining muhtoj qatlamiga iqtisodiy ta’siri tahlil etilgan. Pul transferlarining kambag‘allikni kamaytirishdagi samaradorligi, tizimning zaif tomonlari va uni rivojlantirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy nafaqalar, pul transferlari, kambag‘allik, bolalar nafaqasi, nogironlik nafaqasi, pensiya, ijtimoiy himoya milliy agentligi.*

Kirish

Ijtimoiy nafaqalar tizimi zamonaviy farovonlik davlatining asosiy elementidir. Bu tizim orqali davlat muhtoj fuqarolarni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlab, ularning hayot sifatini ma’lum bir minimal darajada saqlab turishga harakat qiladi. O‘zbekistonda ijtimoiy nafaqalar tizimi mustaqillik yillarida bir necha marta tubdan o‘zgarib, zamonaviy shakliga erishdi.

2023-yil 1-iyunda Prezident farmoni bilan Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi va nafaqalarni tayinlash hamda to‘lash funksiyalarining unga o‘tkazilishi sohadagi eng muhim institutsional o‘zgarishlardan biri bo‘ldi[1]. Hozirda ushbu agentlik tomonidan 17 turli ijtimoiy nafaqa to‘lab berilmoqda. Tizimning shaffofligi va qamrovi sezilarli darajada kengaygan.

Ushbu maqolada nafaqalar tizimini iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan baholash, nafaqalarning oilaviy budjetga hissasi, tizimning kuchli va zaif tomonlari hamda xalqaro amaliyot bilan qiyosiy tahlil qilish ko‘zda tutilgan.

Ijtimoiy nafaqalarning nazariy asoslari

Iqtisodiyot nazariyasida ijtimoiy nafaqalar “pul transferlari” (cash transfers) [4,7] sifatida ko‘riladi. Ularni qo‘llab-quvvatlash uchun bir necha asosiy dalil keltiriladi.

Birinchidan, bozor muvaffaqiyatsizliklari (market failures): sog‘liqni saqlash, ta’lim kabi sohalarda bozor optimal natijalarga erishmasligi mumkin, shuning uchun davlat aralashuvi zarur[7].

Ikkinchidan, gorizontal adolat (horizontal equity): bir xil holatlardagi kishilar bir xil munosabatga sazovor bo‘lishi kerak[8].

Uchinchidan, inson salohiyatini rivojlantirish: nafaqalar kambag‘al oilalarga o‘z farzandlarini ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalantirish imkonini beradi[4].

Xalqaro tajriba ko‘rsatadiki, shartli pul transferlari (conditional cash transfers — CCT) [3] tizimi nafaqalarni ta’lim yoki sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish shartiga bog‘lash orqali nafaqat kambag‘allikni kamaytiradi, balki insoniy kapitalga sarmoya kiritishni rag‘batlantiradi. Meksikaning “Progresa/Oportunidades” dasturi va Braziliyaning “Bolsa Familia” dasturi ushbu yondashuvning eng mashhur misollari hisoblanadi[3].

O‘zbekiston nafaqalar tizimida hozirda asosan shartli nafaqalar (bolalar nafaqasi uchun oilani kam ta’minlangan deb tan olish sharti) va shartsiz nafaqalar (nogironlik nafaqasi, pensiyalar) kombinatsiyasi qo‘llaniladi. Bu yondashuv o‘zida ikkala modelning afzalliklarini birlashtirish imkonini beradi[3].

17 turdagi nafaqalarning tasnifi va xususiyatlari

Ijtimoiy himoya milliy agentligi 17 turli nafaqani to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarishdan tashqari, ularga murojaat qilish jarayonini ham tartibga soladi[1]. Bu nafaqalar taxminan to‘rt asosiy guruhga bo‘linishi mumkin.

Birinchi guruh — kambag‘al oilalarga yo‘naltirilgan nafaqalar: bolalar nafaqasi (0-18 yoshgacha farzandi bor oilalar uchun) va moddiy yordam (18 yoshdan yuqori shaxslar uchun).

Ikkinchi guruh — hayot holati o‘zgarishiga bog‘liq nafaqalar: bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa, dafn marosimi uchun moddiy yordam[2].

Uchinchi guruh — nogironlik va qaramlik holatiga yo‘naltirilgan nafaqalar: nogironlik nafaqasi, 18 yoshgacha bo‘lgan nogironlik nafaqasi, parvarishlash nafaqasi.

To‘rtinchi guruh — maxsus holatlar uchun nafaqalar: jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxslar uchun bir martalik yordam, homiladorlik va tug‘ish nafaqasi[3], energiya tariflari uchun kompensatsiya.

Nafaqalarning eng katta ulushini bolalar nafaqasi va moddiy yordam tashkil etishi kuzatilmoqda. Bu nafaqalarning oilalarga ta’sirini baholashda nafaqa miqdori va oila daromadidagi ulushini bir vaqtda ko‘rib chiqish zarur. Kam ta’minlangan oilalarda ko‘pincha nafaqa oilaning asosiy daromad manbaiga aylanib qolishi muammo ko‘tarib turadi — bu iqtisodiy qaramlikni (dependency trap) keltirib chiqarishi mumkin[4,5].

Nafaqalarning oilalarga iqtisodiy ta’siri

Pul transferlarining kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha samaradorligini baholash metodologiyasi jihatidan murakkab masala[8]. Buning sababi “kontrafaktual holat” muammosidir: nafaqa olgan oila bilan olmagani o‘rtasidagi farqni aniq aniqlash uchun maxsus baholash usullari zarur. Randomizatsiyalangan nazorat tajribalari (randomized control trials — RCT) bu muammoni yechishning eng ishonchli usuli hisoblanadi, biroq bu usul katta moliyaviy va tashkiliy resurslarni talab etadi[4].

Mavjud statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda bolalar nafaqasi oluvchi oilalar soni sezilarli darajada oshdi[2]. Biroq nafaqa miqdori ko‘pincha haqiqiy hayot qiymatiga nisbatan kam bo‘lib qolmoqda. Masalan, bazaviy hisoblash miqdorining bir baravariga teng nafaqa kambag‘al oilaning bir oylik asosiy ehtiyojlarini to‘liq qoplamaydi[6]. Bu vaziyatda nafaqa ijtimoiy himoya sifatida emas, balki qisman qo‘llab-quvvatlash sifatida qaralishi kerak[5].

Nafaqalarning nafaqat pul miqdori, balki maqsadliligi ham muhim. Haqiqatda muhtoj bo‘lmagan kishilarga nafaqa tayinlanishi (inclusion error) ham, haqiqatda muhtoj bo‘lgan kishilar qamrab olinmasligi (exclusion error) ham tizim samaradorligini pasaytiradi[4,6]. Mamlakatimizda bu ikkala muammo ham davom etmoqda va uni hal etish uchun identifikatsiya tizimini yanada takomillashtirish zarur[7].

Xulosalar va tavsiyalar

O‘zbekistondagi ijtimoiy nafaqalar tizimi so‘nggi yillarda sezilarli rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Nafaqalar sonining ko‘payishi, ularni tayinlash jarayonining

raqamlashtirilishi va agentlik nazoratiga o‘tkazilishi samaradorlikni oshirdi. Biroq tizim hali bir necha muhim muammolarni yechimini kutmoqda: nafaqa miqdorining hayot qiymatiga nisbatan muvofiqligini ta’minlash, qamrab olish xatolarini kamaytirish va nafaqalarning iqtisodiy qaramlikni keltirib chiqarish xavfini bartaraf etish.

Kelgusida nafaqalar tizimini takomillashtirish uchun shartli pul transfertlari elementlarini kuchaytirish, ya’ni nafaqani ta’lim, sog‘liqni saqlash va kasb-hunar o‘rganish bilan bog‘lash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv nafaqalarni qisqa muddatli yordam vositasidan uzoq muddatli insoniy kapital rivojlantirishga sarmoya vositasiga aylantiradi. Shuningdek, nafaqalar miqdorini inflyatsiyaga muvofiq indeksatsiya qilish tartibi joriy etilishi ularning real qiymatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi 82-sonli farmoni “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktyabrdagi 550-sonli qarori “O‘limni qayd qilish bilan bog‘liq kompozit davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 515-sonli qarori “Davlat ijtimoiy sug‘urta tizimini rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
4. Fiszbein, A. & Schady, N. (2009). Conditional cash transfers: Reducing present and future poverty. World Bank Policy Research Report.
5. Barrientos, A. (2011). Social protection and poverty. Social Policy and Development Paper No. 42. UNRISD.
6. Ortiz, I., Schmitt, V. & Xavier, L.P. (2018). Financing gaps in social protection. ILO Working Paper.
7. Ravallion, M. (2016). The economics of poverty: History, measurement, and policy. Oxford University Press.
8. OECD. (2023). Society at a Glance 2023: OECD Social Indicators. OECD Publishing, Paris.